
FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



1/2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№ 1/2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov H.N.– psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov N.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

JADIDLAR QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI

Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi bosh mutaxassisi
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: xxmao1993@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston jadidlarining xotin-qizlar ta’limi, oila tarbiyasi, nikoh munosabatlari va ayollar huquqiga oid qarashlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadid matbuoti, badiiy asarlar, arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar asosida ayollar ma’rifatini jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholagan yondashuvlar ochib berilgan. Maqolada Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Sa’diy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ziyolilarning ta’lim, oila va ijtimoiy islohotlarga doir qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari jadidlar uchun xotin-qizlar ta’limi milliy uyg‘onish, oila mustahkamligi va jamiyatni isloh etishning muhim sharti sifatida qaralganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, Turkiston, xotin-qizlar ta’limi, oila, ma’rifat, ayollar huquqi, Fitrat, Behbudiy, Hamza, Sadriddin Ayniy, nikoh, tarbiya, milliy uyg‘onish, ijtimoiy islohot, jadid matbuoti.

Аннотация: В статье анализируются взгляды туркестанских джадидов конца XIX - начала XX века на образование женщин, семейное воспитание, брачные отношения и права женщин. На основе материалов джадидской печати, художественных произведений, архивных документов и научной литературы раскрывается отношение просветителей к женскому образованию как важному фактору общественного развития. В статье сравнительно изучены идеи Абдурауфа Фитрата, Махмудходжи Бехбуди, Хамзы Хакимзаде Ниязи, Садриддина Айни, Абдурахмана Саади, Мунавваркори Абдурашидханова по вопросам образования, семьи и социальных реформ. Результаты исследования показывают, что для джадидов образование женщин рассматривалось как одно из главных условий национального пробуждения, укрепления семьи и реформирования общества.

Ключевые слова: джадидизм, Туркестан, женское образование, семья, просвещение, права женщин, Фитрат, Бехбуди, Хамза, Садриддин Айни, брак, воспитание, национальное пробуждение, социальная реформа, джадидская пресса.

Abstract: The article analyzes the views of Turkestan Jadids of the late 19th and early 20th centuries on women’s education, family upbringing, marriage relations and women’s rights. Based on Jadid periodicals, literary works, archival documents and

scholarly literature, the study reveals how women's enlightenment was interpreted as an important factor of social development. The article comparatively examines the ideas of Abdurauf Fitrat, Mahmudkhoja Behbudi, Hamza Hakimzoda Niyazi, Sadriddin Ayni, Abdurahmon Sa'di and Munavvarqori Abdurashidkhanov on education, family and social reform. The results show that women's education was viewed by the Jadids as a key condition for national awakening, family stability and the modernization of society.

Keywords: Jadidism, Turkestan, women's education, family, enlightenment, women's rights, Fitrat, Behbudi, Hamza, Sadriddin Ayni, marriage, upbringing, national awakening, social reform, Jadid press.

KIRISH

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida kechgan ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar orasida xotin-qizlar ta'limi va oila masalasi alohida o‘rin tutdi. Bu davrda chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati, mahalliy jamiyatdagi turg‘unlik, diniy mutaassiblik, ayollarning huquqiy va ijtimoiy mavqei cheklangani jadid ziyolilarini mazkur muammoga jiddiy e'tibor qaratishga undadi. Ular jamiyatni isloh etishni faqat maktab, matbuot yoki siyosiy faoliyat bilan bog‘lamay, oila muhiti, ona savodi, qizlar tarbiyasi va nikoh munosabatlarini ham taraqqiyotning muhim asoslari sifatida talqin qildilar.

Jadidlar qarashida oila jamiyatning ma'naviy poydevori, xotin-qizlar esa kelajak avlod tarbiyasining hal qiluvchi subyekti sifatida baholandi. Shu sababli ayollarning ilm olishi, ularning huquqiy ongini oshirish, majburiy nikoh, erta turmush, ko‘p xotinlik, ayolni meros va ijtimoiy huquqlardan mahrum qilish kabi illatlarga qarshi kurash jadid islohotchilik dasturining muhim yo‘nalishiga aylandi. Abdurahmon Sa'diy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Sadriddin Ayniy kabi ziyolilar o‘z maqola, risola, dramatik asar va publitsistik chiqishlarida ushbu masalani milliy taraqqiyot bilan bog‘liq holda yoritdilar.

Maqolaning maqsadi - Turkiston jadidlarining xotin-qizlar ta'limiga oid qarashlarini tarixiy-manbaviy asosda tahlil qilish, ularning oila, nikoh, tarbiya va ayollar huquqi haqidagi fikrlarini ilmiy jihatdan umumlashtirishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida jadidchilik harakati doirasida xotin-qizlar ta'limiga oid qarashlar, predmeti sifatida esa jadid matbuoti, badiiy asarlar, arxiv hujjatlari va tarixshunoslikdagi talqinlar tanlandi. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, manbaviy tahlil, tizimli yondashuv va muammoviy tahlil usullaridan foydalanildi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Turkiston jadidlarining xotin-qizlar ta’limi, oila, nikoh va ayollar huquqiga oid qarashlari tarixshunoslikda turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Sovet davri tadqiqotlarida bu masala asosan kommunistik mafkura, sinfiy yondashuv va sovet hokimiyatining “ozodlik beruvchi kuch” sifatidagi talqini asosida yoritildi. A. Smirnovaning xotin-qizlar ta’limiga oid maqolasida ayollarni savodli qilish va ularni ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni sovet siyosatining natijasi sifatida ko‘rsatildi [17]. Bunday yondashuvda jadid ziyolilarining XX asr boshlaridayoq xotin-qizlar ma’rifati, oila islohoti va ayollar huquqi masalasida ilgari surgan qarashlari yetarli darajada ochib berilmadi.

Mustaqillik yillarida mavzuga munosabat tubdan yangilandi. D.A. Alimovaning O‘rta Osiyoda ayollar masalasining o‘rganilish tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlari sovet davri tarixshunosligidagi biryoqlama qarashlarni qayta baholashga xizmat qildi [16]. D. Rajabovaning Turkiston jadidlari qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalasiga oid tadqiqotida esa jadidlarning ayollar ta’limi, oila va nikoh munosabatlarini isloh qilish borasidagi qarashlari alohida ilmiy muammo sifatida o‘rganilgan [15; 123-b.]. G. Rahimova Abdurauf Fitrat va jadid adabiyoti masalasini tahlil qilar ekan, Fitrat ijodida ayol, oila va tarbiya mavzularining milliy uyg‘onish g‘oyasi bilan bog‘liq jihatlariga e’tibor qaratgan [2; 53-b.].

Mavzuning manbaviy asosini jadid matbuoti, badiiy asarlar, publitsistik maqolalar, tarixiy risolalar va ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Abdurahmon Sa’diyning “Xotin-qizlar maorifi” maqolasida ayollarga ta’lim berish, ularning shar’iy va ijtimoiy huquqlarini tiklash masalasi dolzarb vazifa sifatida qo‘yilgan [1]. Abdurauf Fitratning “Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi” hamda “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarlarida ayol ta’limi, er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi va oilaning jamiyat hayotidagi o‘rni nazariy jihatdan asoslab berilgan [3; 130-b.], [4]. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Sayohat xotiralari” va “Hifz-i sihhat-i oila” maqolalarida esa ayollarga munosabat, oila salomatligi va turmush madaniyati masalalari yoritilgan [5], [6].

Jadid adabiyoti ham mazkur mavzuni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” va “Maysaraning ishi” asarlarida ayollar huquqsizligi, majburiy nikoh, ko‘p xotinlik, johillik va ijtimoiy adolatsizlik badiiy obrazlar orqali fosh etilgan [7; 167-b.], [8]. Sadriddin Ayniyning “Musulmonlar hayoti” maqolasida ayol savodi va farzand tarbiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berilgan [9]. “Sadoi Turkiston” gazetasida

e’lon qilingan nikohga oid maqolalarda esa yigit-qiz roziligi, tibbiy ko‘rik, balog‘at va oilaviy mas’uliyat kabi masalalar ilgari surilgan [10].

Tadqiqot metodologiyasi tarixiylik, qiyosiy tahlil, manbashunoslik tahlili va muammoviy yondashuvga tayanadi. Tarixiylik usuli orqali jadidlarning xotin-qizlar ta’limiga oid qarashlari XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy muhiti bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida Fitrat, Behbudiy, Hamza, Ayniy, Sa’diy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Fathiddinzoda qarashlaridagi umumiy va farqli jihatlar aniqlashtirildi. Manbashunoslik tahlili orqali jadid matbuoti, adabiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar va davriy nashrlarda keltirilgan ma’lumotlarning mazmuni baholandi. Muammoviy yondashuv asosida xotin-qizlar ta’limi masalasi oila, nikoh, tarbiya, huquqiy ong va milliy taraqqiyot bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jadidlar xotin-qizlar ta’limini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida baholadilar. Ularning qarashida ayolning ilmli bo‘lishi faqat shaxsiy savodxonlik bilan cheklanmay, oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi, millatning ma’naviy uyg‘onishi va jamiyatni isloh etish jarayoni bilan bevosita bog‘liq edi. Abdurahmon Sa’diy “Xotin-qizlar maorifi” maqolasida ayollarga shar’iy jihatdan berilgan huquqlarni qaytarish va ularni ma’rifatga jalb etish masalasini kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa sifatida ilgari surdi [1]. Bu yondashuv jadidlarning xotin-qizlar masalasiga yuzaki axloqiy da’vat sifatida qaramaganini, uni ijtimoiy islohotning asosiy yo‘nalishlaridan biri deb bilganini ko‘rsatadi.

Sadriddin Ayniy ayol savodini farzand tarbiyasi bilan bog‘lab tushuntirdi. Uning “Musulmonlar hayoti” maqolasida ayol tarbiya ko‘rgan va ilmli bo‘lsa, farzandini ham taraqqiyotga intiladigan inson qilib tarbiyalashi mumkinligi ta’kidlanadi [9]. Bu fikr jadidlarning ona savodiga bergan bahosini ochib beradi. Ular nazarida ona oila doirasidagi oddiy tarbiyachi emas, kelajak avlodning dunyoqarashi, axloqi va ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy kuch edi.

Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari jadidlarning oila va ayol ta’limiga oid qarashlarini tizimli ifodalagan muhim manbalardan biridir. Fitrat oilani jamiyatning tayanch bo‘g‘ini sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, har bir millatning saodati va izzati oilalarning tartibi, ichki intizomi va farzand tarbiyasiga bog‘liq [4; 13-b.]. Fitrat er-xotin munosabatlarida mehr, adolat va o‘zaro hurmatni asosiy mezon sifatida ko‘rsatadi. U ayolning ham oilada o‘z huquqiga ega ekanini ta’kidlab, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni insoniylik va mas’uliyat tamoyillari asosida tushuntiradi [4; 34-b.].

Fitrat “Munozara” asarida ayol ta’limiga qarshi bo‘lgan eskicha qarashlarni tanqid qiladi. Asarda buxorolik mudarrisning ayollar ta’limini foydasiz deb bilishi farangi qahramon bilan bahs orqali rad etiladi [3; 130-b.]. Bu holat jadidlar uchun xotin-qizlar ta’limi diniy-urfiy cheklovlar doirasida emas, balki aql, ma’rifat va jamiyat ehtiyoji asosida baholanganini ko‘rsatadi. Fitratning oilaga oid qarashlarida ayol savodi, bola tarbiyasi va millat kelajagi bir-biri bilan chambarchas bog‘langan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy xotin-qizlar masalasini turmush madaniyati va salomatlik bilan bog‘liq holda yoritdi. Uning “Sayohat xotiralari”da paranjiga o‘ralgan ayollarning noqulay sharoitda yurishi, ularga nisbatan e’tiborsizlik, safar davomida sog‘lig‘i va xavfsizligiga befarq qaralishi keskin tanqid qilinadi [5]. “Hifz-i sihhat-i oila” maqolalarida esa oilada sog‘liqni saqlash, ayollar gigiyenasi, farzand parvarishi va sog‘lom avlod tarbiyasi masalalari ko‘tariladi [6]. Behbudiy qarashlarida xotin-qizlarga munosabat jamiyatning umumiy madaniy saviyasi bilan bog‘liq mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy ayollar huquqsizligini badiiy asarlar orqali yoritdi. “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasida Maryam obrazi majburiy nikoh, ko‘p xotinlik va ayol sha’nining poymol qilinishiga qarshi norozilik timsoli sifatida gavdalanadi [7; 167-b.]. “Maysaraning ishi” asarida esa Maysara adolatsizlikka qarshi aql-zakovat, jur’at va topqirlik bilan kurashuvchi ayol obrazi sifatida ko‘rsatiladi [8]. Hamza ijodida ayol obrazi faqat jabrlanuvchi holatda emas, o‘z haqini anglaydigan, zulmga qarshi turishga qodir shaxs sifatida tasvirlanadi.

Jadidlar nikoh munosabatlarini isloh qilish masalasiga ham alohida e’tibor qaratdilar. “Sadoi Turkiston” gazetasida Yoqubova va Maqsudovaning “Nikoh haqida” maqolasida nikohdan o‘tayotgan yigit-qizning roziligi, ularning sog‘lomligi, nikoh marosimida bevosita ishtiroki, balog‘atga yetmagan qizlarni turmushga berishga yo‘l qo‘ymaslik kabi masalalar ilgari surilgan [10]. Bu takliflar nikohni faqat urf-odat doirasidagi marosim sifatida emas, huquqiy, axloqiy va tibbiy mas’uliyat bilan bog‘liq ijtimoiy institut sifatida anglashga xizmat qilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov ham oilaviy munosabatlardagi jaholat, bid’at va xurofotga qarshi kurashgan jadid ziyolilaridan biri edi. Uning xotiralarida ayollarni ozod etish uchun turli usullarni qo‘llagani qayd etiladi [11; 62-b.]. “Nikoh to‘g‘risida” maqolasida nikoh masalasidagi noto‘g‘ri urf-odatlar tanqid qilinsa, “Bizda jaholat - jahl murakkab” maqolasida oilaviy hayotga singib ketgan nodonlik va ma’rifatsizlik jamiyat taraqqiyotiga to‘siq sifatida ko‘rsatiladi [12], [13]. Munavvarqori qarashlarida diniy qadriyatlarni to‘g‘ri anglash, oilada adolat va ma’rifatni qaror toptirish asosiy o‘rinda turadi.

Zuhriddin Fathiddinzoda “Huquqi nisvon” maqolasida ayollarga yaxshi muomala qilish va ularning huquqlarini berish masalasini millatni jaholat va inqirozdan qutqarish yo‘li sifatida talqin qiladi [14]. Bu fikr jadidlar orasida xotin-qizlar masalasi axloqiy mavzu darajasida qolmaganini, balki millatning ijtimoiy kelajagi bilan bog‘liq muammo sifatida anglanganini ko‘rsatadi. Fathiddinzoda qarashlarida ayol huquqi, ma’rifat va jamiyat taraqqiyoti o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidlar xotin-qizlar ta’limi masalasini uch asosiy yo‘nalishda ko‘tardilar. Birinchi yo‘nalish - ayollarning ilm olish huquqini asoslash va qizlar ta’limini milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida talqin qilish. Ikkinchi yo‘nalish - oila, nikoh va farzand tarbiyasini isloh etish, bunda ayolning tarbiyaviy va ma’naviy mavqeini yuksaltirish. Uchinchi yo‘nalish - ayollarning huquqiy, axloqiy va ijtimoiy maqomini oshirish, ularni jamiyat islohotlarining faol ishtirokchisi sifatida ko‘rish.

Shu asosda aytish mumkinki, jadidlar qarashida ma’rifatli ayol - mustahkam oila, mustahkam oila - barkamol avlod, barkamol avlod - taraqqiy etgan millat g‘oyasining asosiy bo‘g‘ini sifatida talqin qilingan. Ularning xotin-qizlar ta’limiga oid qarashlari o‘z davrining ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllangan va bugungi kunda ham oila, ta’lim, tarbiya hamda gender masalalarini tarixiy asosda o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

XULOSA

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston jadidlari xotin-qizlar ta’limi masalasini milliy taraqqiyotning muhim sharti sifatida ko‘tardilar. Ular ayolning ilmli bo‘lishi oila muhiti, farzand tarbiyasi, jamiyat ma’naviyati va millat kelajagiga bevosita ta’sir etishini chuqur angladilar. Shu sababli qizlar ta’limi, nikoh roziligi, oila salomatligi, majburiy nikoh va ko‘p xotinlikka qarshi kurash, onaning tarbiyaviy mas’uliyati kabi masalalar jadidlarning ma’rifatparvarlik dasturida muhim o‘rin egalladi.

Abdurauf Fitrat oila va farzand tarbiyasini millat qudrati bilan bog‘lagan bo‘lsa, Behbudiy oila salomatligi va ayollarga munosabat masalasini ijtimoiy madaniyat mezoni sifatida baholadi. Hamza ayol huquqsizligini dramatik obrazlar orqali fosh etdi. Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Sa’diy va Munavvarqori Abdurashidxonov esa xotin-qizlar ta’limi va huquqini jamiyatni ma’rifatli qilishning muhim sharti sifatida talqin qildilar.

Tadqiqot natijalari jadidlarning xotin-qizlar ta’limiga oid qarashlari o‘z davri uchun ilg‘or ijtimoiy-huquqiy mazmunga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Ular ayolni oila doirasidagi shaxs, millat kelajagini tarbiyalovchi ma’naviy kuch, ma’rifiy

islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida baholadilar. Shu jihatdan jadidlar merosi bugungi kunda ham xotin-qizlar ta’limi, oilaviy tarbiya va jamiyatda ma’rifatli muhitni shakllantirish masalalarida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Саъдий А. Хотин-қизлар маорифи // Туркистон. - 1922. - 7 октябрь.
2. Раҳимова Гулшан Муҳиддин қизи. Абдурауф Фитрат ва жадид адабиёти (XX асрнинг 20-йилларига қадар): Филол. фан. номз. ... дисс. - Т., 1999. - Б. 53.
3. Фитрат А. Ҳиндистонда бир фаранги ила бухороли мударриснинг жадид мактаблари хусусида қилган мунозараси // Шарқ юлдузи. - 1997. - № 1. - Б. 130.
4. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. - Т.: Маънавият, 2000. - 112 б.
5. Беҳбудий М. Саёҳат хотиралари // Ойна. - 1914. - № 48.
6. Беҳбудий М. Ҳифз-и сиҳҳат-и оила // Ойна. - 1914. - № 47–52; 1915. - № 1.
7. Ҳамза Ҳ.Н. Заҳарли ҳаёт ёхуд ишқ қурбонлари // Мукаммал асарлар тўплами: 4 жилдлик. Ж. 2. - Т.: Фан, 1980. - Б. 163–167.
8. Ҳамза Ҳ.Н. Майсаранинг иши // Тўла асарлар тўплами: 5 жилдлик. Ж. 4. - Т., 1988. - Б. 10–318.
9. Айний С. Мусулмонлар ҳаёти // Туркистон вилоятининг газетаси. - 1906. - 16 ва 19 июль.
10. Ёқубова С., Мақсудова М. Никоҳ ҳақида // Садои Туркистон. - 1914. - 20 май.
11. Мунавварқори Абдурашидхонов. Хотираларидан: жадидчилик тарихидан лавҳалар. - Т.: Шарқ, 2001. - Б. 62.
12. Мунавварқори Абдурашидхонов. Никоҳ тўғрисида // Тараққий. - 1906. - 3 февраль.
13. Мунавварқори Абдурашидхонов. Бизда жаҳолат - жаҳл мураккаб // Тараққий. - 1906. - 14 июнь.
14. Фатҳиддинзода З. Ҳуқуқи нисвон // Садои Туркистон. - 1914. - 12 ноябрь; 10 декабрь.
15. Ражабова Д. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масалалари (XIX асрнинг охири - XX аср бошлари): Тарих фанлари номзоди даражасини олиш учун ёзилган дисс. - Т., 2003. - Б. 123.
16. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: история изучения и современные проблемы. - Ташкент: Фан, 1991.
17. Смирнова А. Женское образование в Узбекистане // Коммунистка. - 1928. - № 8. - С. 82–83.

MUNDARIJA

1.	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ СОПРОВОЖДЕНИИ ПОДРОСТКОВ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ Алимова Елена Геннадьевна	4
2.	G. BARDIYERNING TOLERANTLIK UCH KOMPLEKSLI MODELI TAVSIFI Bafayev Muxiddin Muxammadovich	14
3.	MAKTAB VA SINF MUHITINING KONTEKSTIDA O‘QUVCHILARNING ICHKI NAZORAT LOKUSINING RIVOJLANISH Celal Alğan	19
4.	OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Jabborov Xazrat Xusenovich	27
5.	LIDERLIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA Jumanazarov Bekzod Begnazarovich	37
6.	SHAXS KOGNITIV ONTOGENEZI VA AVLODLAR NAZARIYASI L.S. Tursunov	45
7.	SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING HR MANAGERS PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION M.M. Abdukarimov	53
8.	YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SUITSIDAL XAVF DARAJASINI PASAYTIRISHDA PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOKORREKSION METODLARNING EKSPERIMENTAL TAHLILI Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi	57
9.	OILAVIY QADRIYATLAR VA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR SHAKLLANISHI Rasulova Dildora Shuhratovna	65
10.	QARISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK VA EPIGENETIK MEXANIZMLARI: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YONDASHUVLAR Umirov Shaxrizod O‘rol o‘g‘li	69
11.	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF NEW MORAL VALUES IN STUDENTS Umirzakova Nargiza Ismailovna	74
12.	ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КРИМЕНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ Махмудова Д.А.	78

MUNDARIJA

13. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
Ibragimova Gulsanam Nematovna 82

14. TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O‘QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI
Jalilov Nodirjon Azamatovich 89

15. SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN TARBIYAVIY JARAYONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Karimova Barno Ergashevna 95

16. TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Karimova M.M. 102

17. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI VA METODIK MAHORATI
Uzoqov A.A. 110

18. INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
Xabibullayeva Shaxlo Ulmesovna 116

19. ARAB DAVLATLARI TARIXSHUNOSLIGINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI
Axmedov Sanjar Bektemirovich 122

20. XIX ASR IKKINCHI YARMIDA ZARAFSHON OKRUGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich 129

21. MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA URUSH QATNASHCHILARINI E’ZOZLASH SIYOSATI
Ishchanova Oybika Farhod qizi 136

22. AFG‘ONISTONDA XX ASRNING 90-YILLARDA HOKIMYAT UCHUN KURASHDA ETNOSIYOSIY OMILNING ROLI
Sharipov Shohruz Faxriddin o‘g‘li 143

23. JADIDLAR QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI
Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li 151

24. RAHBAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY TA’SIRCHANLIK MUAMMOLARI
Xalilova Ruxsora Raupovna 158

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA